Bundan tashqari, O'zbekistonda probatsiya faoliyatining huquqiy bazasi so'nggi yillarda sezilarli darajada takomillashtirilgan bo'lishiga qaramay, probatsiya nazoratidagi shaxslarning ijtimoiy moslashuvida psixologik xizmatning samaradorligini empirik baholovchi ilmiy tadqiqotlar yetarli emas. Mavjud ishlarning ko'pchiligi huquqiy yoki kriminologik yondashuvga ega bo'lib, psixologik xizmatning retsdiv xulq-atvorni kamaytirishdagi mexanizmlari, ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlariga ta'siri hamda individual psixologik omillar bilan o'zaro bog'liqligi kompleks tarzda o'rganilmagan.

Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotning maqsadi probatsiya nazoratidagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirishda psixologik xizmatning samaradorligini aniqlash hamda uning retsdiv xulq-atvorni kamaytirishdagi ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini empirik asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun tadqiqotda probatsiya nazoratidagi shaxslarning ijtimoiy moslashuv darajasi, psixologik xizmatdan foydalanish xususiyatlari hamda retsdiv xavfiga ta'sir etuvchi asosiy psixologik omillar tahlil qilinadi.

1 <https://lex.uz/uz/docs/-7050441>

2 <https://lex.uz/uz/docs/-7196808>

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Probatsiya nazoratidagi shaxslarni jamiyatga muvaffaqiyatli qayta integratsiya qilish zamonaviy kriminologiya, psixologiya va ijtimoiy ishlar sohasining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda jazo siyosatida jazolash paradigmasidan reabilitatsiya va reintegratsiyaga asoslangan yondashuvlarga o'tish kuzatilmoqda. Bunday yondashuvlarning asosiy maqsadi shaxsning qayta jinoyat sodir etish xavfini kamaytirish, prosotsial xulq-atvorni rivojlantirish hamda uning jamiyatdagi ijtimoiy rollarini tiklashdan iborat ^[4].

Retsidiv xulq-atvoriga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarda jinoyat sodir etish faqat huquqiy muammo emas, balki murakkab psixologik va ijtimoiy omillar majmuasi sifatida talqin qilinadi. Jumladan, antisotsial qarashlar, impulsivlik, emotsional boshqaruvning sustligi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi, ishsizlik, oilaviy nizolar va psixologik moslashuvdagi qiyinchiliklar retsidiv xavfini oshiruvchi asosiy determinantlar sifatida qayd etilgan ^[5; 6]. Shu sababli zamonaviy probatsiya tizimida nazorat funksiyasidan tashqari, psixologik maslahat, psixokorreksiya va ijtimoiy reabilitatsiya xizmatlarini kuchaytirish muhim strategik yo'nalish sifatida qaralmoqda.

Xalqaro tadqiqotlarda probatsiya xizmatining samaradorligi ko'p jihatdan "Xavf – ehtiyoj – moslashuv" modeli asosida izohlanadi. Mazkur modelga ko'ra, psixologik xizmatlar avvalo yuqori xavf guruhidagi shaxslarga yo'naltirilishi, kriminogen ehtiyojlarni bartaraf etishga xizmat qilishi hamda individual psixologik xususiyatlarga moslashtirilishi lozim ^[5; 7]. Aynan ushbu tamoyillarga amal qilinadigan dasturlar qayta jinoyatchilikni sezilarli darajada kamaytirishi ko'plab meta-tahlillarda tasdiqlangan ^[4].

Andrews va hamkorlari tomonidan o'tkazilgan klassik meta-tahlilda 150 dan ortiq empirik tadqiqotlar umumlashtirilgan bo'lib, psixologik tamoyillarga asoslangan reabilitatsiya dasturlari oddiy nazorat yoki jazoga nisbatan ancha yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlangan ^[5]. Keyinchalik Andrews va Dowden tomonidan o'tkazilgan meta-tahlil dasturlarni amalga oshirish sifati (programme integrity) retsidivni kamaytirish natijalariga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatdi. Mualliflarning fikricha, hatto ilmiy asoslangan metodlar ham malakali psixologlar va to'g'ri tashkil etilgan xizmat tizimisiz kutilgan natijani bermaydi ^[4].

Probatsiya tizimida psixologik xizmatning asosiy vazifalaridan biri shaxsning kriminogen fikrlash usullarini o'zgartirish hisoblanadi. Kognitiv-xulq-atvor terapiyasi (CBT) asosidagi dasturlar impulsivlikni kamaytirish, muammolarni konstruktiv hal qilish, empatiyani rivojlantirish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish orqali retsidiv xavfini pasaytirishi ko'plab ilmiy tadqiqotlarda isbotlangan ^[4; 5]. Shu bois ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda probatsiya xizmatining majburiy komponenti sifatida psixologik treninglar va individual konsultatsiyalar joriy etilgan.

Ijtimoiy moslashuv jarayoni faqat psixologik holat bilan emas, balki shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy resurslari bilan ham chambarchas bog'liq. Bandlik, oila bilan munosabatlarning tiklanishi, ta'lim olish imkoniyatlari, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tarmoqlarining mavjudligi probatsiya nazoratidagi shaxslarning muvaffaqiyatli reintegratsiyasini belgilovchi omillar sifatida e'tirof etiladi ^[8]. Shu nuqtai nazardan, psixologik xizmat multidissiplinar yondashuv asosida ijtimoiy pedagoglar, ijtimoiy ish xodimlari va probatsiya inspektorlari bilan hamkorlikda faoliyat olib borishi zarur.

So'nggi yillarda o'tkazilgan tizimli sharhlarda qamoqdan ozod etilgan va probatsiya nazoratida bo'lgan shaxslar uchun reabilitatsiya hamda re-entry dasturlari psixososial salomatlikni yaxshilashi, moslashuv darajasini oshirishi va qayta jinoyatchilik ehtimolini kamaytirishi qayd etilgan. Bunda, ayniqsa, psixologik maslahat, ruhiy salomatlikni qo'llab-quvvatlash, kasbiy tayyorgarlik va oilaviy maslahat xizmatlarining integratsiyasi eng yuqori natijalarni bergan ^[8].

Trotter tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham probatsiya inspektorlarining prosotsial muloqoti, empatiyasi, muammolarni birgalikda hal qilish usullaridan foydalanishi retsidiv ko'rsatkichlarini 25–50 % gacha kamaytirishi mumkinligini ko'rsatgan ^[6]. Bu esa huquqni muhofaza qiluvchi organ vakili va probatsiyadagi shaxs o'rtasidagi psixologik munosabat sifati reabilitatsiya muvaffaqiyatining muhim prediktori ekanligini anglatadi.

Shuningdek, Smith va hamkorlari tomonidan o'tkazilgan Rapid Evidence Assessment natijalari probatsiya nazorati faqat nazorat mexanizmi sifatida emas, balki psixologik qo'llab-quvvatlash, motivatsion intervyu, individual rejalashtirish va ijtimoiy resurslarni safarbar etish bilan uyg'unlashtirilgandagina barqaror natija berishini ko'rsatgan ^[10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot nazariy-konseptual (theoretical-conceptual) tadqiqot dizayniga asoslangan bo'lib, probatsiya nazoratidagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirishda psixologik xizmatning samaradorligini zamonaviy ilmiy yondashuvlar nuqtai nazaridan tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv (systems approach), biopsixososial paradigma hamda dalillarga asoslangan psixologik amaliyot (evidence-based psychological practice) tamoyillari tashkil etdi ^[4–6].

Tadqiqot davomida ilmiy bilishning umumilmiy va maxsus metodlaridan kompleks foydalanildi. Xususan, konseptual tahlil, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, kontent tahlili, ilmiy sintez hamda umumlashtirish metodlari qo'llanildi.



Mazkur metodlar probatsiya tizimida psixologik xizmatning nazariy asoslarini aniqlash, retsdiv xulq-atvorni kamaytirishga oid zamonaviy ilmiy qarashlarni integratsiyalash hamda mavjud yondashuvlarning ustun va cheklangan jihatlarini aniqlash imkonini berdi [7; 8].

Nazariy manbalarni tahlil qilishda tematik kontent tahlili (thematic content analysis) usulidan foydalanildi. Ushbu usul ilmiy adabiyotlarda uchraydigan asosiy tushunchalar, nazariy konstruksiyalar va psixologik mexanizmlarni tizimlashtirish imkonini beradi. Braun va Klarkning ta'kidlashicha, tematik tahlil murakkab ijtimoiy va psixologik hodisalarning mazmunini izchil kategoriyalarga ajratish hamda turli tadqiqotlar natijalarini yagona konseptual modelga integratsiya qilishda samarali metod hisoblanadi [12].

Shuningdek, tadqiqotda narrativ sintez (narrative synthesis) metodidan foydalanildi. Ushbu metod turli metodologik yondashuvlarda olingan natijalarni statistik meta-tahlil o'tkazmasdan ham konseptual jihatdan birlashtirish imkonini beradi. Popay va hamkorlarining fikricha, narrativ sintez, ayniqsa, murakkab ijtimoiy tizimlar va psixologik xizmatlar samaradorligini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarda eng maqbul metodlardan biri hisoblanadi [13].

Tadqiqotning muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida normativ-huquqiy hujjatlar tahlili amalga oshirildi. Bunda O'zbekiston Respublikasining "Probatsiya to'g'risida"gi Qonuni, "Aholiga psixologik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi Qonuni hamda probatsiya nazoratidagi shaxslar bilan ishlashni tartibga soluvchi idoraviy hujjatlar mazmunan tahlil qilindi. Mazkur hujjatlar probatsiya faoliyatida psixologik xizmatning huquqiy maqomi, vazifalari, tamoyillari va institutsional mexanizmlarini aniqlash uchun asosiy manba bo'lib xizmat qildi.

Konseptual tahlil jarayonida probatsiya psixologiyasida keng qo'llaniladigan "Xavf – ehtiyoj – moslashuv" modeli, strengths-based rehabilitation konsepsiyasi, "Sifatli (mazmunli) hayotga yo'naltirilgan reabilitatsiya" modeli hamda ijtimoiy moslashuv nazariyasi o'zaro qiyosiy tahlil qilindi. Nazariy yondashuvlarning umumiy va farqli jihatlarini aniqlanib, ularning O'zbekiston probatsiya tizimiga moslashtirish imkoniyatlari baholandi [14–16].

Bundan tashqari, ilmiy manbalar tanqidiy tahlil (critical analysis) tamoyillari asosida baholandi. Har bir tadqiqotning metodologik sifati, ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati hamda olingan natijalarning izchilligi o'rganilib, mavjud qarama-qarshiliklar va hali yetarli o'rganilmagan yo'nalishlar aniqlashtirildi. Mazkur yondashuv probatsiya nazoratidagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirishda psixologik xizmatning samaradorligini tushuntiruvchi integrativ nazariy modelni shakllantirish imkonini berdi [17; 18].

Umuman, qo'llanilgan metodologik yondashuv xalqaro ilmiy adabiyotlar, zamonaviy psixologik nazariyalar hamda milliy normativ-huquqiy bazani o'zaro integratsiyalash orqali probatsiya nazoratidagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirishning psixologik mexanizmlarini kompleks baholashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida amalga oshirilgan nazariy va qiyosiy tahlillar probatsiya nazoratidagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirishda psixologik xizmat retsdiv xulq-atvorni kamaytirishning asosiy ijtimoiy-psixologik mexanizmlaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Ilmiy manbalar hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarning kompleks tahlili natijasida psixologik xizmatning samaradorligini belgilovchi o'zaro bog'liq beshta asosiy komponent aniqlandi: psixologik diagnostika, psixologik korreksiya, ijtimoiy moslashuvni qo'llab-quvvatlash, motivatsion rivojlantirish hamda institutsional hamkorlik [4–7].

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy probatsiya tizimida psixologik xizmatning vazifasi faqat shaxsning ruhiy holatini baholash bilan cheklanmaydi. U shaxsning kriminogen ehtiyojlarini aniqlash, retsdiv xavfini prognozlash, individual reabilitatsiya yo'nalishlarini ishlab chiqish hamda ijtimoiy moslashuv jarayonini psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlashni ham o'z ichiga oladi. Ayniqsa, "Xavf – ehtiyoj – moslashuv" modeli asosida tashkil etilgan psixologik xizmatlar individual yondashuvni ta'minlash orqali reabilitatsiya samaradorligini sezilarli oshirishi ilmiy adabiyotlarda qayta-qayta tasdiqlangan [5; 8].

Nazariy tahlil davomida retsdiv xulq-atvorni shakllantiruvchi omillar bir necha o'zaro bog'liq guruhlariga ajratildi. Birinchi guruhga individual psixologik omillar – impulsivlik, past darajadagi o'zini nazorat qilish, emosional beqarorlik, agressiv fikrlash va antisotsial qadriyatlar kiritildi. Ikkinchi guruhni ijtimoiy omillar – oilaviy qo'llab-quvvatlashning sustligi, ishsizlik, salbiy ijtimoiy muhit va stigmatizatsiya tashkil etdi. Uchinchi guruh esa institutsional omillar bo'lib, ular probatsiya organlari faoliyati, psixologik xizmat sifati va idoralararo hamkorlik darajasi bilan bog'liq ekanligi aniqlandi [9–11].

Adabiyotlarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, ushbu omillar bir-biridan mustaqil emas, balki o'zaro ta'sirlashuvchi murakkab tizimni hosil qiladi. Shu sababli retsdivni kamaytirish bo'yicha faqat nazorat choralarini kuchaytirish yetarli emas. Aksincha, shaxsning psixologik resurslarini rivojlantirish, ijtimoiy kompetensiyalarini mustahkamlash hamda ijobiy hayotiy maqsadlarni shakllantirishga qaratilgan kompleks yondashuv barqaror natija beradi [12; 13].

Normativ-huquqiy hujjatlar tahlili O'zbekiston Respublikasida probatsiya tizimining faoliyati insonparvarlik, individual yondashuv va ijtimoiy reabilitatsiya tamoyillariga asoslanganligini ko'rsatdi. "Probatsiya to'g'risi-

da"gi Qonunda probatsiya nazoratining asosiy vazifalaridan biri sifatida shaxsni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirish belgilangan. Shu bilan birga, "Aholiga psixologik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi Qonunda psixologik yordamning asosiy vazifalari qatorida shaxsning ijtimoiy moslashuvini yaxshilash va reabilitatsiyasiga ko'maklashish alohida e'tirof etilgan. Mazkur huquqiy asoslar psixologik xizmatning probatsiya tizimidagi institutsional ahamiyatini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatdiki, probatsiya nazoratidagi shaxslarning ijtimoiy moslashuvi ko'p bosqichli jarayon hisoblanadi. Nazariy manbalarni umumlashtirish asosida ushbu jarayon beshta ketma-ket bosqichdan iborat konseptual model sifatida tavsiflandi:

1. Shaxsning psixologik ehtiyojlarini va retsidiv xavfini aniqlash;
2. Individual psixologik yordam va korreksion dasturlarni ishlab chiqish;
3. Ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish;
4. Oila, mahalla, bandlik va boshqa ijtimoiy institutlar bilan integratsiyani kuchaytirish;
5. Barqaror prosotsial xulq-atvorni shakllantirish orqali qayta jinoyat sodir etish ehtimolini kamaytirish.

Mazkur model xalqaro ilmiy adabiyotlarda tavsiya etilgan reabilitatsiya konsepsiyalari bilan uyg'un bo'lib, O'zbekiston probatsiya tizimining amaldagi huquqiy asoslari bilan mos keladi.

Nazariy sintez asosida psixologik xizmatning samaradorligini belgilovchi to'rtta strategik yo'nalish aniqlandi.

Birinchidan, individual psixologik diagnostikaning muntazam o'tkazilishi reabilitatsiya ehtiyojlarini aniqlash imkonini beradi.

Ikkinchidan, kognitiv-xulq-atvor va motivatsion intervensiyalar shaxsning kriminogen qarashlarini o'zgartirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, psixologik xizmatning ijtimoiy institutlar bilan hamkorligi moslashuv jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi.

To'rtinchidan, psixologik monitoring va qayta baholash mexanizmlarining mavjudligi reabilitatsiya dasturlarining samaradorligini oshiradi ^[14–17].

Shuningdek, tahlillar probatsiya tizimida psixologik xizmatning samaradorligini cheklovchi bir qator omillar mavjudligini ham ko'rsatdi. Jumladan, psixologik xizmatning standartlashtirilgan metodik bazasining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi, psixologlarning maxsus probatsiya psixologiyasi bo'yicha tayyorgarligi cheklanganligi, idoralararo axborot almashinuvidagi qiyinchiliklar hamda psixologik monitoring tizimining to'liq shakllanmaganligi reabilitatsiya jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin ^[18–20].

Shunday qilib, o'tkazilgan nazariy tahlil probatsiya nazoratidagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirish samaradorligi alohida psixologik usullar bilan emas, balki psixologik xizmat, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, huquqiy tartibga solish va idoralararo hamkorlikning integratsiyalashgan tizimi orqali ta'minlanishini ko'rsatdi. Shunga ko'ra, retsidiv xulq-atvorni kamaytirishda psixologik xizmatning roli diagnostik va korreksion faoliyat bilan cheklanmay, shaxsning jamiyatga muvaffaqiyatli reintegratsiyasini ta'minlovchi markaziy ijtimoiy-psixologik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur tadqiqot doirasida amalga oshirilgan nazariy tahlillar probatsiya nazoratidagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirishda psixologik xizmat retsidiv xulq-atvorni kamaytirishning markaziy omillaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Olingan natijalar zamonaviy probatsiya psixologiyasi sohasida shakllangan ilmiy qarashlar bilan umumiy uyg'unlik kasb etadi. Xususan, tadqiqot davomida aniqlangan psixologik diagnostika, individual korreksiya, motivatsion qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy integratsiya komponentlari xalqaro miqyosda keng qo'llanilayotgan "Xavf – ehtiyoj – moslashuv" modeli konsepsiyasining asosiy tamoyillariga mos keladi ^[21; 23; 30].

Nazariy tahlil natijalariga ko'ra, probatsiya nazoratidagi shaxslarning ijtimoiy moslashuvi faqat nazorat choralari kuchaytirilishi orqali emas, balki shaxsning psixologik ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos individual psixologik yordam ko'rsatish orqali ta'minlanadi. Ushbu xulosa Bonta va Bourgon tomonidan ilgari surilgan evidence-based community supervision konsepsiyasi bilan hamohang bo'lib, mualliflar probatsiya inspektorlarini ilmiy asoslangan psixologik yondashuvlar bo'yicha tayyorlash retsidiv darajasini sezilarli kamaytirishini ta'kidlaydilar ^[23; 30]. Demak, psixologik xizmatning samaradorligi nafaqat qo'llanilayotgan metodlarga, balki ularni amalga oshiruvchi mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasiga ham bevosita bog'liq.

Tadqiqot davomida shakllantirilgan konseptual model "Sifatli (mazmunli) hayotga yo'naltirilgan reabilitatsiya" modeli (GLM) nazariyasi bilan ham mazmunan mos keladi. Ward va Maruna jinoyatchilarni reabilitatsiya qilish jarayonida faqat xavf omillarini kamaytirish emas, balki shaxsning ijobiy hayotiy maqsadlari, ijtimoiy resurslari hamda psixologik salohiyatini rivojlantirish zarurligini asoslaydilar ^[15; 16; 17]. Mazkur maqolada ham



psixologik xizmatning asosiy vazifasi retsdivni nazorat qilish emas, balki shaxsni jamiyatning to'laqonli a'zosi ga aylantirishga xizmat qiluvchi psixologik va ijtimoiy resurslarni shakllantirishdan iborat ekanligi ko'rsatildi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari McNeill tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy reabilitatsiya konsepsiyasini ham tasdiqlaydi. Muallifning fikriga ko'ra, probatsiya tizimining samaradorligi nazorat darajasi bilan emas, balki shaxsning jamiyat tomonidan tan olinishi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishi hamda o'z hayotini ijobiy yo'nalishda o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'lishi bilan belgilanadi ^[18; 19]. Mazkur tadqiqot natijalari ham probatsiya nazoratidagi shaxslarning ijtimoiy moslashuvi oilaviy munosabatlar, bandlik, ta'lim va psixologik yordamning kompleks integratsiyasi orqali amalga oshirishini ko'rsatdi.

Tahlillar shuni ham ko'rsatdiki, probatsiya tizimida psixologik xizmatning samaradorligi ko'p jihatdan idoralararo hamkorlik darajasiga bog'liq. Taxman tomonidan ilgari surilgan "systemic responsivity" konsepsiyasiga ko'ra, reabilitatsiya faqat psixolog yoki probatsiya inspektori faoliyati bilan cheklanmasdan, sog'liqni saqlash, ta'lim, bandlik, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro hamkorligi asosida tashkil etilishi lozim ^[20; 21]. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan yangi normativ-huquqiy hujjatlar ham aynan mana shunday integratsiyalashgan yondashuvni nazarda tutadi.

Mazkur tadqiqotning muhim ilmiy natijalaridan biri shundaki, psixologik xizmatning samaradorligi uchta o'zaro bog'liq darajada namoyon bo'lishi asoslandi. Birinchi daraja individual bo'lib, u shaxsning emotsional barqarorligi, motivatsiyasi, o'zini boshqarish ko'nikmalari hamda prosotsial qadriyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Ikkinchi daraja ijtimoiy bo'lib, unda oila, mehnat jamoasi, mahalla va boshqa ijtimoiy institutlarning qo'llab-quvvatlovchi roli muhim hisoblanadi. Uchinchi daraja esa institutsional bo'lib, probatsiya organlari, psixologik xizmat, davlat va nodavlat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni o'z ichiga oladi. Mazkur uch pog'onali model mavjud xalqaro nazariyalarni O'zbekiston probatsiya tizimi sharoitiga moslashtirish imkonini beradi.

Biroq tahlillar ayrim muammolar mavjudligini ham ko'rsatdi. Xususan, probatsiya psixologiyasi bo'yicha maxsus metodik tavsiyalarning yetarli emasligi, psixologik xizmat faoliyatini baholash indikatorlarining ishlab chiqilmaganligi hamda reabilitatsiya samaradorligini monitoring qilishning yagona tizimi mavjud emasligi psixologik xizmatning to'liq samaradorligiga to'sqinlik qilishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, kelgusida psixologik xizmat sifatini baholash mezonlarini ishlab chiqish, standart diagnostik vositalarni joriy etish va probatsiya psixologlari malakasini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlarni kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi ^[22; 28; 31].

Mazkur maqolaning nazariy xarakterga ega ekanligi uning ayrim cheklovlarini ham belgilaydi. Tadqiqot empirik ma'lumotlarga emas, balki xalqaro ilmiy adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlar tahliliga asoslanganligi sababli taklif etilgan konseptual model amaliy sharoitda qo'shimcha empirik tekshiruvni talab qiladi. Shunga qaramay, ishlab chiqilgan nazariy yondashuv kelgusida eksperimental va longitudinal tadqiqotlarni tashkil etish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari psixologik xizmatni probatsiya tizimining yordamchi elementi sifatida emas, balki retsdiv xulq-atvorni kamaytirish va shaxsni muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashtirishni ta'minlovchi asosiy ijtimoiy-psixologik mexanizm sifatida ko'rish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur nazariy tadqiqot probatsiya nazoratidagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirishda psixologik xizmatning o'rni va samaradorligini zamonaviy ilmiy yondashuvlar hamda O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy bazasi asosida kompleks tahlil qilish imkonini berdi. Adabiyotlar, xalqaro tajriba va milliy huquqiy hujjatlarning qiyosiy tahlili psixologik xizmat retsdiv xulq-atvorni kamaytirishda diagnostik, korreksion, motivatsion va reabilitatsion funksiyalarni birlashtiruvchi integratsiyalashgan mexanizm ekanligini ko'rsatdi ^[14-33].

Tadqiqot natijalari asosida probatsiya nazoratidagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirishning konseptual modeli ishlab chiqildi. Mazkur model psixologik diagnostika, individual psixologik yordam, ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish, idoralararo hamkorlik va psixologik monitoringning o'zaro integratsiyasi retsdiv xavfini kamaytirishning muhim omili ekanligini asoslaydi.

Shuningdek, tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasida probatsiya tizimini takomillashtirish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlar tavsiya etildi: probatsiya psixologlari faoliyati uchun yagona metodik standartlarni ishlab chiqish; psixologik diagnostika va monitoring tizimini takomillashtirish; probatsiya organlari, sog'liqni saqlash, bandlik, ta'lim va mahalla institutlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish hamda reabilitatsiya dasturlariga evidence-based psixologik texnologiyalarni keng joriy etish.

Mazkur maqolaning ilmiy ahamiyati shundaki, unda xalqaro reabilitatsiya nazariyalari O'zbekiston probatsiya tizimining huquqiy va institutsional xususiyatlari bilan integratsiyalashtirildi hamda probatsiya nazoratidagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirishda psixologik xizmatning konseptual modeli taklif etildi. Ushbu model kelgusida empirik tadqiqotlar, psixologik intervensiya dasturlarini ishlab chiqish hamda probatsiya organlari faoliyatini ilmiy asosda takomillashtirish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 07.08.2024-yildagi "Probatsiya to'g'risida"gi Qonuni: O'RQ-938-son^{3//} Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
2. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-noyabrdagi "Aholiga psixologik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi Qonuni: O'RQ-989-son⁴ – Toshkent.
3. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining "Probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash" to'g'risidagi buyrug'i, 2025-yil 19-iyul, № 403 // O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2025-yil 20-avgustda 3670-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.
4. Braun, V., & Clarke, V. (2006). Using thematic analysis in psychology. *Qualitative Research in Psychology*, 3(2), 77–101. <https://doi.org/10.1191/1478088706qp063oa>
5. Braun, V., & Clarke, V. (2021). *Thematic Analysis: A Practical Guide*. SAGE Publications.
6. Popay, J., Roberts, H., Sowden, A., Petticrew, M., Arai, L., Rodgers, M., Britten, N., Roen, K., & Duffy, S. (2006). *Guidance on the Conduct of Narrative Synthesis in Systematic Reviews*. ESRC Methods Programme.
7. Page, M. J., McKenzie, J. E., Bossuyt, P. M., Boutron, I., Hoffmann, T. C., Mulrow, C. D., et al. (2021). The PRISMA 2020 statement: An updated guideline for reporting systematic reviews. *BMJ*, 372, n71. <https://doi.org/10.1136/bmj.n71>
8. Aromataris, E., & Munn, Z. (Eds.). (2020). *JBIM Manual for Evidence Synthesis*. Joanna Briggs Institute. <https://doi.org/10.46658/JBIMES-20-01>
9. Tricco, A. C., Lillie, E., Zarin, W., O'Brien, K. K., Colquhoun, H., Levac, D., et al. (2018). PRISMA Extension for Scoping Reviews (PRISMA-ScR): Checklist and Explanation. *Annals of Internal Medicine*, 169(7), 467–473. <https://doi.org/10.7326/M18-0850>
10. Booth, A., Sutton, A., & Papaioannou, D. (2021). *Systematic Approaches to a Successful Literature Review* (3rd ed.). SAGE Publications.
11. Gough, D., Oliver, S., & Thomas, J. (2017). *An Introduction to Systematic Reviews* (2nd ed.). SAGE Publications.
12. Creswell, J. W., & Creswell, J. D. (2023). *Research Design: Qualitative, Quantitative, and Mixed Methods Approaches* (6th ed.). SAGE Publications.
13. Maxwell, J. A. (2021). Why Qualitative Methods Are Necessary for Generalization. *Qualitative Psychology*, 8(1), 111–118. <https://doi.org/10.1037/qp0000173>
14. Ward, T., Fox, K. J., & Garber, M. (2014). Restoring the human being: The promise of the Good Lives Model. *European Journal of Probation*, 6(1), 53–68. <https://doi.org/10.1177/2066220314527455>
15. Ward, T., & Maruna, S. (2007). *Rehabilitation: Beyond the Risk Paradigm*. Routledge.
16. Ward, T., & Brown, M. (2004). The Good Lives Model and conceptual issues in offender rehabilitation. *Psychology, Crime & Law*, 10(3), 243–257. <https://doi.org/10.1080/10683160410001662744>
17. Maruna, S. (2001). Making Good: How Ex-Convicts Reform and Rebuild Their Lives. *American Psychological Association*. <https://doi.org/10.1037/10430-000>
18. McNeill, F. (2019). Mass Supervision, Misrecognition and the 'Malopticon'. *Punishment & Society*, 21(2), 207–230. <https://doi.org/10.1177/1462474518764502>
19. McNeill, F., Raynor, P., & Trotter, C. (2010). *Offender Supervision: New Directions in Theory, Research and Practice*. Routledge.
20. Taxman, F. S. (2014). Second Generation of RNR: The Importance of Systemic Responsivity in Expanding Core Principles of Responsivity. *Federal Probation*, 78(2), 32–38.
21. Taxman, F. S., & Belenko, S. (2012). Implementing Evidence-Based Practices in Community Corrections and Addiction Treatment. Springer. <https://doi.org/10.1007/978-1-4614-0415-5>
22. Skeem, J. L., & Manchak, S. M. (2008). Back to the future: From Klockars' model of effective supervision to evidence-based practice in probation. *Journal of Offender Rehabilitation*, 47(3), 220–247. <https://doi.org/10.1080/10509670802134097>
23. Bourgon, G., & Bonta, J. (2014). Reconsidering the Responsivity Principle: A way to move forward. *Federal Probation*, 78(2), 3–10.
24. Robinson, G., McNeill, F., & Maruna, S. (2013). Punishment in society: The improbable persistence of probation and other community sanctions. *The Oxford Handbook of Criminology*.
25. Vanstone, M. (2004). *Supervising Offenders in the Community*. Ashgate Publishing.
26. Robinson, G. (2005). What works in offender management? *Howard Journal of Criminal Justice*, 44(3), 307–318. <https://doi.org/10.1111/j.1468-2311.2005.00381.x>
27. McGuire, J. (Ed.). (2002). *Offender Rehabilitation and Treatment: Effective Programmes and Policies to Reduce Re-offending*. Wiley.
28. Lipsey, M. W., & Cullen, F. T. (2007). The effectiveness of correctional rehabilitation: A review of systematic reviews. *Annual Review of Law and Social Science*, 3, 297–320. <https://doi.org/10.1146/annurev.lawsocsci.3.081806.112833>
29. Cullen, F. T., Jonson, C. L., & Nagin, D. S. (2011). Prisons do not reduce recidivism: The high cost of ignoring science. *The Prison Journal*, 91(3_suppl), 48S–65S. <https://doi.org/10.1177/0032885511415224>
30. Bonta, J., Bourgon, G., Rugge, T., Scott, T. L., Yessine, A. K., Gutierrez, L., & Li, J. (2011). An experimental demonstration of training probation officers in evidence-based community supervision. *Criminal Justice and Behavior*, 38(11), 1127–1148. <https://doi.org/10.1177/0093854811420678>
31. Latessa, E. J., Johnson, G., & Koetzle, D. (2020). *What Works (and Doesn't) in Reducing Recidivism*. Routledge.
32. Raynor, P., & Robinson, G. (2009). *Rehabilitation, Crime and Justice*. Palgrave Macmillan.
33. Petersilia, J. (2003). *When Prisoners Come Home: Parole and Prisoner Reentry*. Oxford University Press.

³ <https://lex.uz/uz/docs/-7050441>
⁴ <https://lex.uz/uz/docs/-7196808>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.